

NODIRA (MOHLAROYIM) SHE`RIYATINING TIMSOLLARI KO`LAMI.

Alijonova Nodiraxon Shavkatjon qizi.

Farg`ona Davlat Universiteti.

Filologiya fakulteti talabasi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Nodirabegimning g`azallari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoironing badiiy uslubi, she`riy obrazlari va mavzulari yoritiladi. G`azallari orqali insoniy his-tuyg`ular, ishq, ayriliq, hasrat, iymon va bardosh, axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Tadqiqot shuningdek, she`riyatning badiiy va estetik jihatlarini uslublar orqali o`quvchida hissiy tajriba yaratish imkoniyatlarini ham ko`rib chiqadi.

**Kalit so`zlar:** Nodirabegim, g`azal, badiiy tahlil, ishq lirikasi, hijron, dard-u g`amlari.

KIRISH

Nodira- o`zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri bo`lib, uning she`riy merosi nafaqat badiiy yuksakligi, balki timsollar, obrazlar, ramzlar kengligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Shoir o`z ijodida muhabbatning latif kechinmalaridan tortib, insoniylik, vafo, sadoqat kabi murakkab ma`naviy masalalarni timsollar orqali yuksak san`atkorlik bilan ifodalagan. Nodira timsollarining ko`lami keng, ma`no qatlamlamlari boy bo`lgani uchun ular she`rni chuqur anglashga undaydi.

ASOSIY QISIM

Nodiraning g`azallari o`zbek she`riyatida ishq, ayriliq va hasratni ifodalashda muhim ro`l o`ynaydi. Har bir g`azali o`ziga xos badiiy vositalar, ritim va mazmuni bilan ajralib turadi. Quyidagi ikkita eng taniqli g`azallari va ularning tahlili keltiriladi:

“Eshit” radifli g`azali

Yo`nalish: ishq lirikasi.

Parchasi:

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,

Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Dudi ohim shu`lasi husning dabristonda
Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim ,eshit.
Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim bo`ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

Tahlil:

G`azalda turkiy so`z (“Eshit”) radifga olingan. Qofiyadagi so`zlarning barchasi o`zbekcha egalik qo`shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so`zlardan tashkil topgan(dodim, faryodim ozodim, shamshodim).

Doda keldim- arz qilib keldim.

Salotin sarvari-podshohlar podshohi.

Dabristonda-nufuzsiz joy.

Sarvi ozodim-sarv daraxtidek tik qomatligim.

G`azal zimdan Nodiraning umr yo`ldoshi-Amir Umarxonga bag`ishlangan. She`r an`anaviy, ya`ni oshiqning yor sog`inchi ifodalangan ishqiy g`azal hisoblanadi.

“Oqibat” radifli g`azali

Yo`nalish:Hijron iztirob,dard-u g`am.

Parchasi:

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,

Seli g`amdin bu imorat bo`ldi vayron oqibat.

Qildi choki pirahan dog`i dilimni oshkor,

Qolmadi ko`nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.

Tahlil:

G`azalda “Oqibat” so`zi radifga olingan.Qofiyadosh so`zlari(hijron, vayron,pinhon).

Pirahan-ko`ylak.

Zaxmi- yarasi.

Mazmun:Bu g`azal ishqning shirin vaslidan boshlab achchiq hijrongacha bo`lgan holat, qalbnig vayron bo`lishi, dardni yashira olmaslik, ishqning jarohati oshkor bo`lib qolishi haqida.Shoiraning ichki iztirobi kuchli badiiy timsollar bilan ifodalangan.

XULOSA

Nodiraning gʻazallari oʻzbek adabiyotida badiiy va estetik qadriyatlarni ifodalashda muhim oʻrn tutadi.

Gʻazallarida ishq, hijron va iztiroblarini badiiy vositalar orqali jonli va taʼsirchan tarzda yoritilgan.

Nodira timsollar tizimi orqali oʻzbek mumtoz adabiyotining poetik tafakkuri yanada boyidi. Uning obrazlari olami nafaqat badiiy - esteti zavq beradi, balki oʻquvchini insoniylik, muhabbat, vafo, sabr kabi maʼnaviy qadriyatlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Shu bois Nodira sheʼriyati timsollar koʻlamining kengligi, ramzlarining sermaʼnoligi, mazmunning falsafiyligi bilan bugungi oʻquvchi uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Shoiraning timsol yaratish mahorati uning ijodini mumtoz adabiyotning yuksak namunalaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Nodira. "Devon". - Toshkent: Fan, turli yillar nashrlari.
2. Qahhorova. S. "Nodira ijodining badiiy xususiyatlari" - Ilmiy maqola, "Til va adabiyot taʼlimi" jurnali, 2018.
3. Gʻlomov. A., Hojiahmedov H. "Oʻzbek mumtoz adabiyoti". - Toshkent: Fan, 1999.
4. Shermuhamedova. N. "Nodira shheʼriyatida ayol obrazining badiiy talqini". - Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent davlat universiteti, 2016.